

**OVCHILIK BILAN SHUG‘ULLANUVCHI  
FUQAROLARNI OV QUOLLARINI SAQLASH HOLATINI  
NAZORAT QILUVCHI DASTUR TASNIFI**

**S.Masharipov, L.Raximova, A.Adamboyev**

TATU Urganch filiali “Dasturiy injiniringi” kafedrasи

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada biz qurolga ega fuqorolarni va qurol saqlash sharoitini onlayn nazorat qilib borish ilovasi haqida ma'lumot beramiz. Bu ularning va atrofdagi insonlarning xavfsizligi hamda texnik ko'rikdan o'tganligini nazorat qilib borishga yordam beradigan qulay dastur hisoblanadi. Bu dastur Ichki Ishlar boshqarmasi xodimlarini ishini biroz yengillashtirishga yordam beradi va qurollarni vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazishini nazorat qilib boradi.


**Kalit so'zlar:** Ov qurollari, xavfsizlik, qonunchilik, onlayn,

**Qurolga ega bolish uchun qonunchilikga bo'y singan holda ruxsatnomaga ega bolish kerak.** Qurol va uning o'q-dorilari muomalasi sohasida jismoniy shaxslarga beriladigan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar quyidagi ruxsatnomalar hisoblanadi[1]:

- fuqaroviylar qurolni, kolleksiyalash uchun mo'ljallangan qurol va uning o'q-dorilarini olishga doir;
- fuqaroviylar qurol, mukofot qilingan qurol va uning o'q-dorilarini, kolleksiyalash uchun mo'ljallangan qurol va uning o'q-dorilarini realizatsiya qilishga doir;
- fuqaroviylar qurolni, mukofot qilingan qurolni saqlash va olib yurishga doir;
- sport o'qotar quroli va uning o'q-dorilarini, og'iz qismidagi quvvat 3 jouldan yuqori va kalibri 4,5 millimetrdan ortiq bo'lgan pnevmatik sport qurolini, tig'li sovuq sport va sport uloqtirish qurolini saqlashga doir;
- soyli stvolli sport o'qotar quroli va uning o'q-dorilarini, tig'li sovuq sport va sport uloqtirish qurolini, kolleksiyalash uchun mo'ljallangan qurol va uning o'q-dorilarini, ko'rgazmaga qo'yish uchun mo'ljallangan qurol va uning o'q-dorilarini tashishga doir;
- qurol va uning o'q-dorilarini kolleksiyalashga doir;
- qurol va uning o'q-dorilarini ko'rgazmaga qo'yishga doir;
- fuqaroviylar qurol va uning o'q-dorilarini, mukofot qilingan qurol va uning o'q-dorilarini, kolleksiyalash uchun mo'ljallangan qurol va uning o'q-dorilarini, ko'rgazmaga qo'yish uchun mo'ljallangan qurol va o'q-dorilarini

O‘qotar ov, silliq stvolli sport, mukofot qilingan qurol va uning o‘q-dorilari, o‘zini o‘zi himoya qilish qurolini tashish Milliy gvardiya organlarining qurolni saqlash va olib yurishga doir ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi[2].

Shularni inobatga olgan holda biz yuqorida keltirilgan hujjatlarni IIB xodimiga taqdim etishimiz va keyinchalik ro‘yxatdan o‘tish imkoniga ega bo‘lishimiz mumkin, muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tgandan keyin qurolga ega bo‘lishimiz mumkin[3]. Dastur qurolga ega bo‘lgan fuqorolarni monitoring qilish, qurolni holatini va saqlash sharoitini tekshiruv muammolarini o‘z vaqtida hal qilishga yordam beradi. Dastur interfeysi quyidagi ko‘rinishga ega(1-rasm):



1-rasm. Dastur interfeysi.

Bu dastur qurollarni texnik xizmat ko‘rsatishini monitoring qilishda va xizmat xarajatlarini to‘lashni nazorat qilishda juda foydali va kerakli dastur bo‘lib, IIB xodimlarini bir qancha vaqtini tejash imkonini beradi. Bu dastur ya’na bir yaxshi imkoniyatidan biri bu fuqaro ma’lumotlariga ega bo‘lishi mumkinligi, kerak vaqtida fuqoro bilan tezda bog‘lana olishi va fuqoroni qurolini shaydorligini tekshirish vaqtini kelgani haqida ogohlantirishi mumkin. Shuningdek, agar IIB xodimi o‘z vazifasini vaqtida bajarmasa, Ichki ishlar Boshqarmasi xodimiga kerakli chora tadbirlar ko‘riladi. Agarda fuqoro to‘lovlarni kechiktirsa, qonunda ko‘rsatilgan holda jarimaga tortiladi. Dasturni ya’na bir imkoniyati bu fuqorolarni ma’lumotlarini o‘zgartira olishi mumkin. Dasturni bosh sahifasida umumiyligida qurolga ega fuqorolarni jami soni ko‘rsatilgan va qanchasi tekshiruvdan o‘tganligini yoki o‘tmaganligi va biroz vaqtidan keyin tekshiruvdan o‘tganlarni grafik shaklda ko‘rsatib berilgan. Tekshiruvda IIB xodimi

fuqoro talablarga mos holda qurolni saqlayotganini, ya’ni, kirish eshigi panjara bilan qoplanganligi va qurol seyfda saqlanoyotganligini rasmga olib ma’lumotlar bazasiga saqlab qo‘yishi imkonini beradi, bu esa kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklarni oldini olishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. <https://lex.uz/docs/-6040829?ONDATE=02.09.2022%2000>
2. <https://daryo.uz/2020/01/18/ozbekistonda-qurol-uchun-ruxsatnoma-qanday-tartibda-olinishi-malum-boldi/>
3. <https://www.bviib.uz/oz/news/urol-turisidagi-onunchilik-takomillashtirilib-unga-uzgartish-va-ushimchalar-kiritildi>